



**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR: MOVAROUNNAHRDAN
HINDISTONGACHA BO'LGAN SIYOSIY STRATEGIYA VA MADANIY MEROS**

Abdusamadova Zarina Hasan qizi

Xavfsizlikni huquqiy ta'minlash
yo'nalishi 382-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning siyosiy faoliyati, harbiy strategiyasi hamda madaniy-ma'naviy merosi tahlil qilinadi. Boburning Movarounnahrdagi Temuriylar saltanatini tiklash yo'lidagi muvaffaqiyatsizliklari, Kobulda mustaqil davlat barpo etishi va nihoyat, Hindistonda Boburiylar imperiyasiga asos solishi tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar asosida ilmiy-nazariy yondashuvda ko'rib chiqiladi. Stephen F. Dale, Valdemar Hansen kabi g'arbiy sharqshunos olimlarning tadqiqotlari asosida Boburning "mulkgirlik" va "podishohlik" konsepsiyasi, shuningdek, "Boburnoma" asarining adabiy, tarixiy va falsafiy qiymati tahlil qilinadi. Maqolada Boburiylar davrida Hindiston siyosiy, ma'muriy va madaniy jihatdan yuksak taraqqiyot bosqichiga erishgani isbotlanadi. Tadqiqot natijalari Bobur siymosining nafaqat o'zbek, balki jahon sivilizatsiyasidagi tutgan o'rnini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburiylar imperiyasi, harbiy strategiya, Boburnoma, siyosiy meros, madaniy uyg'unlik, Temuriylar.

Аннотация: В данной статье анализируются политическая деятельность, военная стратегия и культурно-духовное наследие Захириддина Мухаммада Бабура. Рассматриваются неудачные попытки Бабура восстановить государство Тимуридов в Мавераннахре, создание им независимого государства в Кабуле и, наконец, основание Империи Бабуридов в Индии. На основе исторических источников и



современных исследований даётся научно-теоретическое освещение его деятельности. На основе трудов западных востоковедов, таких как Стивен Ф. Дейл и Вальдемар Хансен, анализируются концепции «мулькгирлик» (завоевание территории) и «падишахлик» (укрепление власти), а также литературная, историческая и философская ценность произведения «Бабур-наме». В статье доказывается, что во времена Бабуридов Индия достигла высокого уровня политического, административного и культурного развития. Результаты исследования способствуют глубокому пониманию роли личности Бабур не только в узбекской, но и в мировой цивилизации.

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бабур, Империя Бабуридов, военная стратегия, Бабур-наме, политическое наследие, культурная гармония, Тимуриды.

Abstract: This article analyzes the political activity, military strategy, and cultural-spiritual legacy of Zahiriddin Muhammad Babur. His unsuccessful attempts to restore the Timurid state in Mavarannahr, his establishment of an independent state in Kabul, and eventually the foundation of the Mughal Empire in India are considered from a scholarly and theoretical perspective, based on historical sources and modern research. Drawing on the works of Western orientalists such as Stephen F. Dale and Waldemar Hansen, the article explores Babur's concepts of "mulkgirlik" (territorial conquest) and "padishahlik" (consolidation of rule), as well as the literary, historical, and philosophical significance of his work Baburnama. It is demonstrated that during the Mughal period, India experienced significant political, administrative, and cultural advancement. The findings of this study contribute to a deeper understanding of Babur's role not only in Uzbek history but also within the broader context of world civilization.

Keywords: Zahiriddin Muhammad Babur, Mughal Empire, military strategy, Baburnama, political legacy, cultural harmony, Timurids.



Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) shaxsiyati nafaqat O‘zbekiston tarixida, balki jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida ham chuqur iz qoldirgan. Amir Temurning beshinchi avlodi sifatida dunyoga kelgan Bobur Temuriylar saltanatini qayta tiklashga bo‘lgan siyosiy va harbiy urinishlari bilan tarixiy jarayonlarda faol ishtirok etgan. Movarounnahrda siyosiy parokandalik, ichki raqobatlar va tashqi bosimlar tufayli u o‘z dastlabki niyatlariga erisha olmagan bo‘lsa-da, Afg‘oniston va Hindiston zaminida tarixiy jihatdan mustahkam imperiyani barpo etishga muvaffaq bo‘lgan.

Bobur faqat harbiy sarkarda sifatida emas, balki donishmand davlat arbobi, tafakkur sohibi, adabiyot va san‘at homiysi sifatida ham e‘tirof etilgan. Ayniqsa, uning "Boburnoma" asari orqali shaxsiy dunyoqarashi, tabiiy-ilmiy qiziqishlari va siyosiy-falsafiy qarashlari chuqur ochib berilgan. Uning siyosiy strategiyasi, madaniy yondashuvi va sufi tafakkuri ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan bo‘lib, bu maqolada zamonaviy tarixshunoslikda mavjud baholar asosida Bobur merosiga ob‘ektiv yondashuv beriladi.

Zahiriddin Muhammad Boburning Movarounnahrni tark etishi, uning Temuriylar saltanatini saqlab qolish yo‘lida olib borgan mashaqqatli siyosiy va harbiy kurashlarining natijasi sifatida yuzaga kelgan tarixiy voqealardandir. Bobur dastlab Temuriylar merosini himoya qilish, ayniqsa Samarqand taxtini egallab, davlatni tiklash maqsadida astoydil harakat qildi. Biroq, XV asrning oxiri va XVI asr boshlarida mamlakatda hukm surgan og‘ir iqtisodiy tanglik, siyosiy parokandalik va ichki raqobatlar uning bu niyatini amalga oshirishga to‘sqinlik qildi.

1501–1504-yillar oralig‘ida Bobur Andijon taxtini egallab turgan Sulton Ahmad Tanbal va boshqa raqib temuriy hukmdorlar — Jahongir Mirzo bilan kurash olib bordi. Bu urinishlar xalq tomonidan qo‘llab-quvvatlanmadi, sababi — tinimsiz urushlardan charchagan aholining ijtimoiy noroziligi edi. Ayniqsa, 1503-yilda Toshkent xoni Mahmudxon, qalmoqlar va Bobur boshchiligidagi qo‘shinning Shayboniynxon tomonidan



Sirdaryo bo'yida yengilishi uning siyosiy mavqeini yanada zaiflashtirdi. Shu sababli, Bobur 1504-yil iyun oyida Movarounnahrni tark etishga majbur bo'ldi.

Bobur 200–300 kishilik sadoqatli navkar bilan Hisor tog'lari orqali Afg'onistonga o'tadi va u yerdagi ichki siyosiy bo'shliqdan foydalanib G'azni hamda Kobulni egallaydi. Bu bosqich Bobur hayotidagi burilish nuqtasi bo'lib, u Kobulda o'zining mustaqil hukmronligini shakllantiradi. Bu yerda harbiy tuzilmani kuchaytiradi, ichki intizomni o'rnatadi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni yo'lga qo'yadi. Bobur Kobulni harbiy-boshqaruviy tayanch nuqtasiga aylantirish bilan birga, uni obodonlashtirish ishlariga ham katta e'tibor qaratadi. "Bog'i Shaxrora", "Bog'i Jahonora", "Bog'i Vafo", "Bog'i Bobur" kabi oromgohlar va yangi imoratlar bunyod etiladi. Shuningdek, hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi va infratuzilmani rivojlantirish yo'lida Bobur tadbirkor hukmdor sifatida faoliyat yuritadi.

Kobulda barpo etilgan bu siyosiy barqarorlik va iqtisodiy tiklanish Boburning xalq orasidagi obro'sini oshiradi. Uning harbiy-tashkiliy salohiyati butun Xuroson va Movarounnahrdagi siyosiy kuchlar tomonidan tan olinadi. Xususan, Shayboniylarning tahdidiga qarshi Temuriylar ittifoqi tuzish masalasida Sulton Husayn Boyqaro tomonidan Boburning Hirotidagi maslahat yig'iniga taklif etilishi bunga dalildir. Husayn Boyqaroning 1506-yilda to'satdan vafot etganiga qaramay, Bobur Hirotga borib, temuriy hukmdorlar bilan muzokaralar o'tkazadi. Ammo, bu ittifoq amalga oshmaydi, Temuriylar birin-ketin mag'lubiyatga uchrab, saltanatni butunlay yo'qotadilar.

Ushbu mag'lubiyatlardan Bobur siyosiy xulosa chiqaradi. Kobulga qaytib, u o'z harbiy va siyosiy strategiyasini tubdan qayta ko'rib chiqadi. Endilikda uning nigohi Hindiston tomonga qaratiladi. U yerda parokanda feodal kuchlar, siyosiy zaiflik va beqarorlik muhitidan foydalanib, yangi imperiyani barpo etish imkoniyatini ko'radi. Nihoyat, 1526-yilda Panipat jangida son jihatdan ustun bo'lgan Dehli sultoni Ibrohim



Lodiyning qo‘shinini tor-mor etib, Bobur Hindistonda Boburiylar imperiyasiga asos soladi [1].

Bobur o‘z imperiyasini barpo etishda Temuriylar siyosiy an‘analarini Hind muhitiga moslashtirish orqali o‘ziga xos markazlashgan davlat tizimini shakllantirdi. Stephen F. Dale o‘zining *The Garden of the Eight Paradises* nomli fundamental asarida Boburning harakatlarini "mulkgirlik" (ya‘ni hududiy egallash) va "podishohlik" (ya‘ni hukmronlikni mustahkamlash) strategiyalarining o‘zaro uyg‘unlashuvi sifatida tahlil etadi[1]. Uning fikricha, Bobur Temuriy harbiy merosni Hind muhitiga sinchkovlik bilan moslashtirib, madaniy uyg‘unlik asosida siyosiy mustahkamlikka erishgan.

Boburiylar imperiyasi davrida Hindiston ilk bor markazlashgan imperiya shaklida boshqarila boshlandi. Ayniqsa, “mansabdoriya” tizimi asosida xizmatga yarakli kishilarga yer-mulk berish, lavozimga tayinlash, harbiy va fuqaroviy boshqaruvni birlashtirish orqali siyosiy sadoqat va ijtimoiy barqarorlik ta‘minlandi. Akbarshoh, Jahongir va Shohjahon davrlarida bu siyosiy va ma‘muriy tizim yanada mukammallashib, imperiya o‘z yuksalish cho‘qqisiga chiqdi.

Bobur nafaqat siyosiy arbob va sarkarda, balki adabiy-estetik tafakkur egasi ham bo‘lgan. Uning “Boburnoma” asari o‘z davri uchun noyob xotiralar janridagi adabiy yodgorlik bo‘lib, unda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindistondagi siyosiy, madaniy, geografik va ijtimoiy hayot tafsilotlari badiiy va ilmiy nuqtai nazardan tasvirlangan[2]. Dale ta‘kidlaganidek, “Boburnoma” Boburning nafis didi, tasviriy mahorati, botanika va geografiyaga bo‘lgan qiziqishini yaqqol ifodalaydi[3]. U Boburni A. Navoiy singari ulkan she‘riy salohiyatga ega mutafakkir sifatida ko‘radi.

Boburning diniy qarashlari murakkab va ko‘p qatlamli bo‘lib, u o‘z asarlarida din masalasiga bevosita kamroq murojaat qilgan bo‘lsa-da, tushlar, ruhi tajribalar, ilohiy kechinmalar orqali uning tasavvufiy tafakkuri namoyon bo‘ladi. Dale uni “siyosiy



realistik”[3] musulmon hukmdor sifatida baholab, diniy dogmatikaga emas, balki amaliy davlat qurilishiga asoslangan ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishni tan olgan deb ta’riflaydi.

Boburiylar madaniy merosi ayniqsa me’morchilik, adabiyot, ilm-fan va san’at sohalarida o‘z aksini topdi. Shohjahon tomonidan qurilgan Toj Mahal, Agra qal’asi, Shalimar bog‘i, Nishat Bagh, Chashma Shahi kabi obidalar fors, turkiy va hind me’morchilik unsurlarining sintezi sifatida jahon madaniy merosiga kirgan. Bu obidalar estetik go‘zalligi, ramziy yuki va tarixiy ahamiyati bilan bugungi kungacha o‘z qiymatini saqlab qolgan. Boburiylar imperiyasi ostida nafaqat me’morchilik, balki miniatyura, musiqashunoslik, tarix, astronomiya, tibbiyot, ijtimoiy fanlar ham rivojlangan bo‘lib, ilm-fan va madaniyat uchun mustahkam zamin yaratilgan.

G‘arbiy olimlar orasida Boburiylar sulolasining Hindiston tarixidagi roli keng tan olingan. Ingliz sharqshunosi Valdemar Hansen bu davrni “Hind tarixidagi to‘vusning gultoji”[4] deb baholagan bo‘lsa, Stephen F. Dale bu sulolani Temuriy an‘analarni Hindiston zaminida yangicha shaklda davom ettirgan, madaniyatlararo uyg‘unlikni ta’minlagan imperatorlik modeli deb ataydi. Bugungi kunda ham Zahiriddin Bobur va Boburiylar faoliyati xalqaro tarixshunoslikda fundamental tadqiqotlar obyekti bo‘lib qolmoqda.

Zahiriddin Muhammad Boburning siyosiy faoliyati, harbiy strategiyasi va madaniy-ma’naviy merosi nafaqat O‘rta Osiyo, balki butun jahon tarixida muhim o‘rin tutadi. U Movarounnahrda Temuriylar saltanatini tiklash yo‘lidagi harakatlarida muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo‘lsa-da, Kobul va Hindistonda barpo etgan davlat tizimi orqali o‘zining siyosiy salohiyatini amalda namoyon eta oldi. Bobur harbiy masalalarda strategik yondashuvni qo‘llab, ichki intizom va ijtimoiy barqarorlikka urg‘u berdi. Ayniqsa, Kobulda olib borgan obodonlashtirish ishlari va iqtisodiy rivojga qaratilgan islohotlari uni faqat zabt etuvchi emas, balki bunyodkor hukmdor sifatida namoyon etdi.



Boburiylar imperiyasining shakllanishi va rivojlanishi Dale ta'kidlaganidek, mulkgirlik va podishohlik tushunchalari uyg'unligiga asoslangan bo'lib, bu yondashuv madaniy uyg'unlik orqali siyosiy mustahkamlikka erishish imkonini bergan. Bobur nafaqat sarkarda va davlat arbobi, balki adib, mutafakkir va insonparvar rahbar sifatida ham ajralib turadi. Uning "Boburnoma" asari tarixiy va ilmiy nuqtai nazardan yuksak qadrlanib, muallifning ruhiy holati, estetik didi, geografik tafakkuri va falsafiy mulohazalari bilan boyitilgan adabiy yodgorlik hisoblanadi.

Boburning diniy qarashlari, sufi tafakkuri, ilm-fanga, san'at va me'morchilikka bo'lgan e'tibori, ayniqsa Boburiylar hukmdorlarining madaniyatlararo uyg'unlikni targ'ib qiluvchi siyosiy faoliyati G'arb tarixshunosligi tomonidan ham yuksak baholanmoqda. Valdemar Hansen tomonidan bu davrning "Hind tarixidagi to'vusning gulto'ji" sifatida e'tirof etilishi bejiz emas.

Bugungi kunda ham Zahiriddin Bobur shaxsiyati, uning davlat boshqaruvi tajribasi, madaniy merosi va tarixiy faoliyati xalqaro miqyosda tadqiq etilmoqda. U tomonidan asos solingan Boburiylar imperiyasi nafaqat o'z davrining siyosiy modeli, balki jamiyat, san'at va ilm-fan taraqqiyoti uchun yaratilgan sivilizatsiyaviy muhit sifatida tarixda o'z izini qoldirgan. Bobur siymosi va uning merosi o'zbek xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasi sifatida qadrlanishi darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dale, S. F. (2012). The Garden of the Eight Paradises: Babur and the Culture of Empire in Central Asia, Afghanistan and India (1483–1530). Cambridge: Cambridge University Press.
2. Beveridge A. The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor / translated from Chagatai Turkish by A. Beveridge. — London: Luzac & Co., 1921. — 2 vols.



3. Dale, S. F. (2009). The Muslim Empires of the Ottomans, Safavids, and Mughals. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Hansen V. The Peacock Throne: The Drama of the Moghul Empire. — Delhi: Holt Rinehart & Winston, 1986. — 560 p.